



*O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim
vazirligi Z.M.Bobur nomidagi Andijon Davlat Universiteti
FILOLOGIYA fakulteti o'zbek tili va adabiyot metodikasi
kafedrasi*

*4- bosqich "B" guruh talabasi Yuldashaliyeva Feruzaning
"Ona tili darslarida o'quvchilar faolligini oshirish"
mavzusidagi*

Kurs ishi

ILMIY RAHBAR:

G.Rasulova

Andijon - 2014

MAVZU: Ona tili darslarida o`quvchilar
faolligini oshirish

REJA:

- 1.** Ona tilini o`qitish muammolari
- 2.** Ona tili darslarida o`yinlardan foydalanish
- 3.** 6-sinflarda o`quvchilar faolligini oshirish
- 4.** 7-8-sinflarda o`quvchilar faolligini oshirishga erishish

Yurtimizda ta'lim sohasida tub burilish yasashga asos solgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilinganing o'ninchi yiliga qadam qo'ygan ekanmiz, bu dasturda shu yillar mobaynida har bir fanni o'qitish bo'yicha belgilangan vazifalarning bajarilish darajasini sarhisob qilish tabiiy bir holder.

Ushbu dasturda belgilanishicha ona tilini o'qitishda qo'yilgan vazifalar kelajakda yurt egalari bo'lmish yoshlarga ijodiy fikrlash, o'z fikrini mustaqil ravishda savodli, qisqa va lo'nda qilib ifodalash, o'z nuqtai nazarini himoya qilish, ona tilida mutaxassislik tili sifatida foydalanishni o'rgatishdan iboratdir. Demak, Grammatik bilimlardan vosita sifatida foydalanib, ularni egallashni o'quv faoliyatining birinchi bosqich qilib belgilab, bu bilimlar asosida nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga erishish asosiy maqsaddir. Vaholanki, shu paytgacha ona tili o'qitish deganda, o'zbek tilshunosligini o'rgatish asosiy maqsad hisoblanib, dasturlar ham, darsliklardagi barcha mashqlar ham anashu maqsadga yo'naltirilib tuzilar edi. Bunda o'quvchilar e'tibori leksik va sintaktik birliklarning mazmuniga emas, balki shakliga qaratilgan bo'lib, asosan ularning Grammatik shakli o'rganiladi, so'zlarning o'zaro ma'noviy munosabati shu jumladan, valentlik hamda uslubiy mutanosibligi esa e'tibordan chetda qoladi. Masalan, tilimizda avvalgi holatiga keltirish ma'nosida tuzatish, ta'mirlash va sozlash so'zlari

qo'llanadi. Ushbu sinonim so'zlarning har birini qo'llash doirasi

turlichadir. Jumladan, tuzatish so'zidan farqli o'laroq, ta'mirlash so'zi ko'proq bino, turara joy, inshoatlarni asl holiga keltirish ma'nosida qo'llanib, tishni ta'mirlash, yoki sog'liqni ta'mirlash birikmalarida qo'llansa, kulguli bo'ladi.

Til o'qitishda asosiy maqsad o'quvchilarda nutqiy ko'nikmalarni hosil qilish ekan, bizning fikrimizcha, darslikda sof Grammatik mashqlar qatorida fikrni to'g'ri ifodalash yo'l-yo'riqlarini o'rgatuvchi nutqiy topshiriqlardan iborat mashqlar ko'proq bo'lishi kerak. Masalan, buyruq maylidagi fe'llarni nutqda qo'llashni o'rgatishda "O'qituvchingiz darsda qandat buyruq va topshiriqlar berishi haqida gapirib bering" degan topshiriqli mashq berishi mumkin. Yoki fe'lning majhul nisbati ustida ishlashda "Shanbalik natijasida bajarilgan ishlarni birma-bir aytib bering" kabi topshiriqli mashqni bajargan o'quvchilar o'rganilayotgan materialning hayotda zarurligini his qiladilar va bu fe'l shakllarini o'z nutqlarida qo'llashga odatlanadilar. Xuddi shuningdek, hozirgi-kelasi zamon fe'llarini tushlash, ya'ni shaxs-son qo'shimchalarini to'g'ri qo'llashni o'rgatishda "Matndagi o'quvchi o'z kun tartibi bo'yicha qilgan ish-harakatlarni siz ham har kuni bajarishingizni ayting" degan topshiriqni bajarish uchun o'quvchi matnda III shaxsda qo'llangan fe'llarni I shaxs shakliga soladi. Ushbu fe'l shaklining amaliyotdagi ahamiyatini anglash natijasida o'quvchilarning ona-tili darslariga qiziqishi oshadi.

Yuqoridagi kabi topshiriqli nutqiy mashqlarni asosini mazmun ifodasi tashkil etadi. Avvalgi darsliklarda ananaviy bo'lgan “ Gap tuzing ” yoki “ Matn tuzing ” kabi topshiriqli mashqlarda esa ma'no ifodalash emas, shaklni qo'llash vazifasi qo'yiladi. Tabiiyki, bunday topshiriqni bajarishda ma'noviy vazifa yo'qligi sababli o'quvchida stimuly bo'lmay, u bu ishni nima uchun bajarish kerakligini his etmaydi.

Metodik qonun- qoidalarga ko'ra o'quvchidan bir amalni bajarishni talab qilishdan avval bu amalni bajarish yo'l-yo'riqlarini o'rgatish va buning uchun zarur bo'lgan bilimni berish lozim. Masalan, o'quvchiga matn tuzish vazifasi topshirilganda unga qanday qolipdagi qaysi shakl va mazmundagi matnni tuzishi haqida aniq ko'rsatma berilishi kerak. Bundan tashqari, avval matn tuzishni o'rgatish, ya'ni matn tarkibidagi jummalarni qo'llashda mantiqiy izchillikka rioya qilish, matn qismlarini bir-biriga bog'lovchi vositalarni qo'llash hamda matn rejasini tuzishni o'rgatish zarur. Shundan keyinbina o'quvchidan matnni tuzishni talab qilsa bo'ladi. Qolaversa, matn ham turlicha (dialog, monolog, polilog) shaklda bo'ladi. Dialog yoki polilog shaklidagi matn nafaqat savol-javob, balki bir shaxs bildirgan fikrni ikkinchi shaxs tasdiqlashi, qisman yoki to'la ma'qullashi, qo'shimcha qilishi yoki e'tiroz bildirishini ifodalovchi jummalardan iborat bo'lishi mumkin. Ana shu jummalarning har biri turli darajalardagi ma'no ifodasiga (kuchli, o'rta kuchli yoki kuchsiz) ega bo'lishi mumkin. Masalan, e'tiroz bildirishda:

- Yo'q, bu mutlaqo noto'g'ri, bu fikrga qo'shila olmaymiz.
- Bu fikrga qo'shilish qiyin.
- Bu haqida biz hali bir to'xtamga kelganimiz yo'q.
- Bu masalani biz atroflicha o'rganib chiqishimiz kerak, hozir aniq bir narsa deya olmaymiz.
- Fikringiz to'g'rib o'lishi mumkin, ammo bizda boshqacha taklif ham yo'q emas.

Maqsad kelajak uchun so'zamlol, o'z sohasi yuzasidan turli bahs-munozarada faol ishtirok etadigan mutaxassislar tayyorlash ekan, maktabdanoq o'quvchilarga ona tili darslarida yuqoridagi kabi jummalarni o'rgatish zarur.

Hozirgi chet eldagi ona tili darsliklarida Grammatik darsliklar bilan bir qatorda nutqiy mashqlar ham yetarli darajada beriladi. Amerikaning esa ko'p o'quv muassasalarida ona tili bo'yicha til darslari alohida, nutq o'stirish darslari alohida o'tkazilar ekan.

Ishonamizki, “ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ” talablarni bajarish uchun yuqorida qayd etilganidek, yo'l tutish maqsadga muvofiq ekanligini tushungan holda dastur va darsliklarni takomillashtirish va qayta nashr etishda nitqoy mashqlarga katta e'tibor beriladi.

Lotin imlosiga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tish munosabati bilan ona tili ta'limi maqsadi vazifalari va mazmunida o'zgarishlar yuz berdi. Mazkur masala bilan bog'liq barcha me'yoriy hujjatlarda ona tili darslarida o'quvchilarni foydali o'z faoliyatida kerakli bo'ladigan zaruriy bilimlar bilan qurollantirish, ularda og'zaki va yozma nutq ko'nikma va malakalarni hosil qilish ko'zda tutilgan.

Ilmiy metodik mashqlarda tilning boshqa sathlari bo'yicha ko'plab maqolalar chop etilyapti, ammo negadir fonetika ustida ishlashga kam e'tibor berilyapti. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ona tili ta'limining dastlabki bosqichida ham, bugungi kungi mustaqil, ijodiy fikrlashga yo'naltirilgan yuqori bosqichda nutq tovushlarinimukammal o'rganishni ta'minlovchi maxsus fonetik mashqlarga e'tabor qilinmaydi, ayniqsa darsliklarda ayrim tovushlarning talaffuzi va yozuvidagi farqlarni o'zlashtirish bo'yicha maxsus mashqlar yo'q.

Talaffuz masalasi boshqa tillarda yetarlicha o'rganilyapti. Jahon tajribasidan ma'lumki, ona tili darsliklarida o'quvchilarni talaffuzga o'rgatish uchun fonetik mashqlar yetarlicha kiritilgan. Ammo o'zbek tili ta'limida, hattoki ta'limning filologlar tayyorlovchi fakultetlari uchun chop etilgan darslik va qo'llanmalarda ham tovushlarning talqin holati aks etgan maxsus chizmalar yo'q. O'zbek tiliga xos bo'lgan ayrim tovushlarning to'g'ri talaffuzini o'rgatish uchun bunday mashqlar juda zarur.

Muammoning bosh sababi umumta'lim maktablarda ona tili o'qitish masalasiga borib taqaladi. Ma'lumki, to'g'ri talaffuz – madaniyatlik belgisi hisoblanadi. Adabiy gapirish me'yorlari, talaffuzning asosiy birligi hisoblangan nutq tovushlari 5-sinfdan boshlab “fonetika” mavzusida tizim sifatida o'rganiladi. Shu yerda nutq tovushlari bilan birga to'g'ri talaffuz hamda imlo qoidalari haqida ham ma'lumot beriladi. Ammo talaffuz bilan imloni farqlashga doir mashqlar darsliklarda berilmagan.

Ona tili ta'limida, ba'zi nutq tovushlarini o'rgatishda hududiylikka, ya'ni mahalliy sheva ta'siri muammosiga va o'quvchilar talaffuzidagi hududiy xususiyatlardan kelib chiqib maxsus mashqlarga jiddiy e'tabor berish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Xorazm vohasida “q” undoshi o'rniga “k” tovushidan foydalanish ko'nikmaga aylanib qolgan. Xorazmlik o'quvchiga adabiy talaffuz me'yorlarini o'rgatishda darslikda berilgan ikkita mashq kamlik qiladi.

Toshkent viloyati, xususan, Toshkent shaharida ommaviy talaffuzda h bo'g'iz undoshi o'rnida muntazam x chuqur til orqa undoshning qo'llanishi (xandaley, xurmat, xamma va b) ni kuzatish mumkin. Shuningdek, Buxoro, Samarqand (shahar hududida) Surxandaryo, Qashqadaryo viloyatlarining ayrim tumanlarida o' unlisining talaffuzida muammo borligini aytish mumkin. Samarqand viloyatining Pastdarg'om, Urgut, Qo'shrabot va Nurobod

tumanlarida I, e unlilarining aytilishida me'yorlashmagan holat bor. Xuddi shunday, Kattaqo'rg'on tumanida o', u unlilarining ishlatilishida chalkashlik mavjud. Bu hududda yashovchilar, o'quvchilar, hatto o'qituvchilar ham o' unlisini u, u unlisini esa o' deb talaffuz qilishini payqash mumkin.

Ko'rinib turibdiki, ayni shu hududlarda ona tili o'qitish bo'yicha mashqlarga alohida e'tabor berish kerak. 5-sinfda "Ona tili" darsligida yuqorida keltirilgan tovushlarni o'zlashtirishga mo'ljallangan nazariy

ma'lumotlar va ularni mustahkamlovchi mashqlar bir xil. Ushbu maqolada mazkur tovushlar talaffuzini sanab o'tilgan hudud o'quvchilari, o'qituvchilar va boshqalar nutqida adabiy me'yor holatiga keltirish uchun bugungi darslik va qo'llanmalarda uchramaydigan quyidagicha maxsus fonetik mashqlar, tovushlarning talaffuzi paytidagi nutq a'zolarining ko'rinishini aks ettiruvchi alohida ta'riflar, shuningdek, oksilografik chizmalardan foydalanish bo'yicha misollar keltirmoqchimiz. Masalan, q undoshining hosil qilish uchun pastki jag' sal orqaga tortilib, tilning orqa qismi tanglayga yopishishi va o'pkadan kelayotgan havo portlab chiqish kerak. Buni quyidagi tasvir orqali ko'rsatish hamda maxsus fonetik mashqlar orqali o'rganib olish mumkin:

Qo'y – ko'y

Qul – qo'l – qol – qil

Qarg'a – qorga – qirga

Qara – qora – qo'ra

Shuningdek, h bo'g'iz undoshining ham yozma hamda og'zaki nutqda to'g'ri qo'llanishini ta'minlash uchun h va x undoshlarini farqlovchi mashqlar tavsiya etish ularda bu ikkala tovush bilan keladigan so'zlar talaffuzini taqqoslab ko'rsatish mumkin. Masalan: xol – hol, xor – hur, xurram – hurmat kabi.

O'zbek tilida o' unlisining hamma o'rinlarda ham bir xil talaffuz qilinmasligi ma'lum, biroq uni o'quvchilarga farqlab berish masalasi muammoligicha turibdi.

Aksariyat ona tili darsliklarida bu unli tovush talaffuzida farqlanmaydi. Ta'kidlash kerakki, bugun amalda bo'lishi 5-sinfda "ona tili" darsligida o' unlisi talaffuzida farq qilishi to'g'risida ma'lumotlar misoli bilan keltirilgan. Bu albatta ijobiy hodisa, biroq o'quvchiga "bir holatda torroq, boshqasida kengroq aytiladi" deyilgani bilan u bu holatda talab darajasida o'zlashtira olmaydi.

Birinchi taqdimotni “Olmosh” mavzusi bo’yicha grammatik topishmoqlar asosida tuzish mumkin. Unda olmosh so’z turkumi haqidagi topishmoqlar beriladi va o’quvchilar taqdimotdan topishmoqni o’qib javobini topadilar. B u taqdimot slaydlari o’quvchilarning bilish darajasi va qiziqishlariga qarab tayyorlanadi.

Ikkinchi taqdimot esa “Savolnoma” deb nomlanib, uni taqdim etish jarayonida o’quvchi bevosita ham ishtirokchi, ham baholovchi sifatida qatnashadi. Bunda avval slaydda savollar chiqadi, o’quvchi javob berib bo’lgach esa javoblar chiqadi. O’quvchi nechog’liq to’g’ri javob berganligini tekshirish imkoniyatiga ega bo’ladi. Bu taqdimot olmoshlarning tuzilishiga ko’ra turlariga bag’ishlangan bo’lib, u 6 slayddan iborat.³

Ko’rinib turibdiki, taqdimot jarayonida o’quvchi namoyish qilish metodining faqat tomosha qiluvchisigina emas, balki mushohada qiluvchi ishtirokchisi, baholovchisi hamdir. Bunday taqdimotni o’tkazish dars sifatining samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Ona tili darslarini mavzu xarakteriga qarab xilma-xil, qiziqarli va fikrlashga da’vat etuvchi o’yin-topshiriqlar asosida tashkil etish o’quvchilarda mustaqil ijodiy mushohada yuritish, o’z fikrini aniq, ravon, ixcham holda o’zgalarga yetkaza bilish ko’nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, 6-sinfda aniq otlarning ma’noviy guruhlari qatoridan “Hayvonot otlari” mavzusi berilgan. Men ushbu mavzu bo’yicha mashg’ulotni quyidagicha uyushtiraman:

Mazkur mavzuni o’tishdan oldin hayvonlar haqida she’r, maqol, masal, tez aytishlarni yodlab kelish, hayvonlar rasmini yig’ish va ularning nomlarini aniqlashni o’quvchilarga uy topshirig’i qilib beraman.

Darsni boshlashdan avval sinf o’quvchilarini 3 guruhga ajrataman. Guruhlar mavzuga mos ravishda “Arslon”, “Lochin”, “Saman” nomlarini oladilar.

Darsni o’quvchilar to’plagan rasmlardagi hayvonlarning nomini aytish va ularni ikki guruhga: xonaki va yavvoyi hayvonlarga bo’lish, shuningdek, ushbu hayvonlarning nomlarini qatnashtirib so’z birikmasi va gaplar tuzish mashqi bilan boshlayman.

Bundan so’ng “Aqliy hujum” o’yinini uyushtiraman. Buning uchun guruhlariga quyidagi topshiriqlarni beraman:

1. Muchal taqvimida nechta hayvon borligini ayting va ularni tartib bilan sanab bering.
2. Hayvon nomlari qatnashgan maqollarni ayting va ma’nolarini sharhlab bering?

O’quvchilar quyidagi gaplarni aytib, ma’nolarini izohlaydilar:

³ Nigora Umarova Ona tili darslarida taqdimot texnologiyalaridan foydalanish. Til va adabiyot ta’limi 2007-yil 1-son 13-bet.

Ayirilganni ayiq yer, bo'linganni bo'ri. Arslon izidan qaytmas, yigit kishi so'zidan. Buzoqning yugurgani somonxonagacha. Jo'jani kuzda sanaydilar.

Shundan so'ng hayvon nomlari ishtirok etgan iboralar aytish bo'yicha musobaqa o'tkazaman. O'quvchilar, masalan, quyidagi iboralarni keltiradilar:

Mirzakarimboy ilonning yog'ini yalagan odam. Bu gapdan Ra'noning kapalagi uchib ketdi.

So'ngra o'quvchilarga tubandagi savol bilan murojaat etaman:

Insonlardagi qaysi xususiyat yoki fazilatlar hayvonlardagi shunga o'xshash xislatga qiyos qilinadi?

O'quvchilarning javobi:

mard insonlarni –arslonga,

qo'rqqoq odamlarni- quyonga,

xushovoz xonandalarni-bulbulga,

yuvosh, sodda odamlarni- qo'yga

Shundan so'ng guruhlar hayvon otlarini o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llab gaplar tuzishda ham musobaqalashadilar. Musobaqaning keyingi bosqichiga o'quvchilarning topqirligi, ziyrakligi, hozirjavobligini sinash maqsadida har uchala guruh o'zaro bir-birlariga hayvon va jonivorlar nomi bo'ladigan topishmoqlardan misol keltirishadi:

Boshi taroq, dumi o'roq.

(xo'roz)

O'zi yo'qdek, tovushi o'qdek.

(chigirtka)

Bundan tashqari, guruhlar hayvon nomlari qatnashgan tez aytishlar topishda ham musobaqalashadilar. So'ngra "Kim tez topadi?" o'yini o'tkazilib, undan guruhlariga berilgan quyidagi savollarga qisqa vaqt ichida to'g'ri javob berilishiga qarab g'oliblar aniqlanadi:

1.Qaysi hayvon suvsizlikka ko'proq chidaydi? (tuya)

2.Qaysi hayvon qish davomida uxlaydi? (ayiq)

Dars so'ngida g'olib guruh aniqlanib, rag'batlantiriladi. Uyga vazifa sifatida o'quvchilar qaysi uy yoki yovvoyi hayvonni yoqtirsa o'sha hayvon haqida ijodiy matn yaratish hamda O'zbekistonda kamayib borayotgan noyob turdagi, Davlat muhofazasiga olingan hayvonlar ro'yxatini yozib kelish topshirig'i beriladi. Bunday topshiriqlarni bajarish natijasida o'quvchilar Vatanni obod qilish, ona-tabiatimizni sevish, hayvonot olamini chuqur o'rganish, jonzotlarga ozor bermay, ularni avaylab-asrashga odatlanadilar. Shuningdek, bolalikdan o'smirlikka qadam qo'ygan 6-sinf o'quvchilari bilan yuqoridagi kabi o'yinlardan

foydalanib dars o`tish nafaqat ularning og`zaki nutqini o`stirishga, balki fikr doirasining kengayishiga, dunyoqarashning shakllanib borishiga yordam beradi.⁴

Bolalarni fanga qiziqtirish uchun o`qituvchi boy bilim bilan birga ijodkor va aktiyor ham bo`lish lozim. Har bir darsga tayyorlanar ekanman, bugungi darsim kechagisidan farq qilishiga, bolalarni fikrini tez jamlashga harakat qilaman. Bu o`yinlar juda sodda bo`lib, o`qituvchidan ortiqcha mehnat talab qilmasligi kerak. Masalan, 5-sinfda “Ot” turkumini o`tayotganimda sinf xonasidagi jihozlar, o`quvchining ust-boshi, tana a`zolari, deraza oynasidan ko`rinib turgan narsalar nomini ko`p va xatosiz yozish bo`yicha “Kim o`zar” o`yinini o`tkazaman. Buning uchun yozuv taxtasi uch qismiga ot so`z turkumiga oid ko`proq so`zlar yozishlari kerak.

“So`zbirikmasi” mavzusini o`tganimga “Bekinmachoq” o`yini bilan dars boshlayman. Bunda avval o`quvchilarning daftarlariga parta, shkaf, stol, eshik, bola, yashirindi, topdi, izladi, yonida turdi kabi so`zlarni yozdiraman. So`ng ushbu so`zlarni bir-biriga bog`lab, so`z birikmalari tuzish vazifasini topshiraman. Yozilgan birikmalarni qo`shimchalariga qarab saralash topshirig`idan so`ng o`quvchilarning daftarlaridagi yozuvlar quyidagi ko`rinishda bo`ladi.

Partaning usti	eshikdan tashqari	epchil bola
----------------	-------------------	-------------

Shkafning ichi	orqasiga yashirindi	tez chopdi
----------------	---------------------	------------

Stolning yoni	yonida turdi	ancha izladi
---------------	--------------	--------------

Mazkur birikmalar asosida moslashuv, boshqaruv, bitishuv usullarini tushuntiraman. Har bir o`yin davomida o`quvchilar zarur bilimlarni o`zlashtirishlari, faol ishlashlariga diqqat qaratish bilan birga, ularning xushxatligiga, savodxonligiga, nutqlarida adabiy til me`yorlariga rioya qilishlariga aholida ahamiyat beraman.⁵

⁴ Nigora Xo`jayeva “Hayvonot otlari” mavzusi bo`yicha o`yin-topshiriqlardan foydalanish Til va adabiyot jurnali.

⁵ Risxi Xudoyorova Ona tili darslarida o`yinlaridan foydalanish Til va adabiyot ta`limi jurnali.

6-sinfda “Xususiyat sifatleri” mavzusi ustida ishlashda o`quvchilar nutqini o`stirish, so`z boyligini orttirish, ular xarakterida ijobiy sifatleri shakllantirish, salbiy sifatleri yo`qotishni maqsad qilib oldim. Darsni o`tgan mavzudan takrorlashdan boshladim. Buning uchun o`quvchilarni 3 guruhga bo`ldim. Har bir guruhdan bir juft o`quvchini xattaxta yoniga chaqirib ularga topshiriq berdim. Topshiriqqa ko`ra, juftlikdagi o`quvchilardan biri sherigining tashqi ko`rinishini tasvirlab berishi kerak edi. Qaysi guruh vakili topshiriqni boshqalardan yaxshi bajarsa, o`sha guruh g`olib bo`ladi.

Bu topshiriqni o`quvchilar quyidagicha bajarishadi:

1-guruh vakili: Rustam-baland bo`yli, oq-sariqdan kelgan, yelkalari keng bola. Uning ko`zlari qiyiq, burni qirra, sochi jigarrang.

2-guruh vakili: Shohida-to`ladan kelgan, past bo`yli qiz. Uning yuzi dumaloq, burni puchuq, peshonasi keng.

3-guruh vakili: Aziza-o`rta bo`yli, nozikkina, bug`doyrang qiz. Uning qoshi qora ko`zlari katta-katta, kipriklari uzun, burni qirra, qora sochlari kalta kesilgan, tishlari durdek oppoq. Yengil qadam tashlab yuradi.

Men javoblarni baholashdan avval 1- va 2-guruh javobida tasvirlanayotgan kihining qaysi jihatlari yoritilib o`tilmaganini aytib o`tdim. Tasvirlanayotgan obyekt haqidagi eng to`liq javobni 3-guruh vakili bergani ucin u g`olib bo`lganini e`lon qildim. So`ngra yangi mavzu bayoniga o`tdim. O`quvchilarga insonlar bir-biridan nafaqat tashqi ko`rinishi, balki xarakter xususiyatlari ham farqlanishini tushuntirdim va bugungi yangi mavzuni “Xususiyat sifatleri” ekanligini e`lon qildim. Yangi mavzuni boshlashdan avval o`quvchilarga quyidagi savollarni berdim: “Xususiyat deganda nimani tushunasiz?”, “Qanday xususiyatlarni bilasiz?”, “Sinf doshingiz Bahodir qanday xususiyatlarga ega?”, “Sizningcha, bu xususiyatlarning qaysi biri yaxshi- yu, qaysi biri yomon? ”. Shu savollar asosida suhbat o`tkazdik va suhbat natijasida xususiyatlar ijobiy yoki salbiy bo`lishi, bu xususiyatlar o`zaro muloqot chog`ida, kishilarning boshqalarga munosabatida namoyonbo`ladi, degan xulosaga keldik. Xattaxtani ikkiga bo`lib, chap tomoniga 1-guruh a`zolari galma-galdan ijobiy xususiyatlarni, o`ng tomoniga 2-guruh a`zolari shu xususiyatlarga qarama-qarshi bo`lgan salbiy xususiyatlarni quyidagi tartibda yozib borishdi:

IJOBIY	SALBIY
Kamtar	manman
Sodda	mug`ombir
Samimiy	ikkiyuzlamachi
Bosiq	jizzaki
Kuchli	nimjon
Rostgo`y	yolg`onchi
Mehnatsevar	dangasa
Mehribon	bemehr
Rahmdil	berahm

3-guruhga esa “Sizningcha, ko`rsatilgan ana shu xususiyatlarni qanday tasniflash mumkin?”deb savol berdim. So`ng ularning javoblarini umumlashtirib shu xususiyatlarni quyidagi guruhlariga bo`ldik.

- 1) odob-axloq bo`yicha (rostgo`y, yolg`onchi)
- 2) kishilarga munosabat bo`yicha (rahmdil, berahm)
- 3) mehnatga munosabat bo`yicha (mehnatsevar,dangasa)
- 4) aql-zakovati bo`yicha (aqlli, ahmoq)

O`quvchilar bu sifatlarni daftarlariga yozib olishdi. So`ngra o`quvchilar e`tiborini quyidagi jadvalga qaratdim. Jadvalning chap tomonidagi ustunda xususiyat sifatlari, o`ng tarafdagi ustunda esa harakat nomlari berilgan edi. Musobaqa shartiga ko`ra o`quvchilar jadvaldan shu sifatlarga mos harakat nomlarini to`g`ri topishlai kerak edi.

Ziyrak	O`zini katta tutadi.
Dangasa	Hech kimdan narsasini ayamaydi.
Saxiy	Ish qilishga erinadi.
Dimog`dor	Tez fahmlay oladi, sezgir.

Bu musobaqa shartiga ko`ra 3-guruh a`zolari eng to`g`ri javobni berib, g`olib bo`lishdi. Shundan keyin o`quvchilarga 6-sinf “Adabiyot” darsligidan o`rin olgan O`tkir Hoshimovning “Urushning so`nggi qurboni” hikoyasini eslatdim va hikoya qahramonlari Umri xola, Shoikrom, Xadichalar xarakteriga xos xususiyatlarni toppish vazifasini berdim. O`quvchilarning javobini tinglagandan keyin Umri xola-andishalimehribon, g`amxo`r, kamsuqum ayol,Shoikrom-shafqatsiz, oqibatsizqisqa o`ylaydigan odam, Xadicha esa ziqna, qurumsoq, betgachopar ayol degan xulosaga keldik. Shoikromni qotillikka undagan, ko`rinmas o`g`ridan o`ch olishga majbur qilgan, oqibatda o`z onasining o`limiga sabab bo`lgan narsa-bu urush, uning xunuk oqibatlari, Shoikromxarakterida ildiz otgan salbiy xususiyat ekanligini ta`kidladim va inson har qanday vaziyatda ham odamiylikni unutmasligi

kerakligini uqtirdim. Xarakter xususiyatlarini anglatuvchi soʻzlarni qoʻllashni mashq qilish uchun oʻyin-musobaqa bilan darsni davom ettirdim. Buning uchun har bir guruhdan bir juft oʻquvchini tanladim. Har bir juftlikdagi oʻquvchilardan biri ijobiy xususiyat sifatlariga misol keltirishi va bu sifatarning sinonimik qatorini hosil qilishi, ikkinchisi esa bu xususiyatning zid maʼnosini anglatuvchi sifatarni topishi karak edi. Soʻngra sardorlar bellashuvini oʻtkazaman. Sardorlar bellashuvida uchala guruh sardorlari topshiriqni bajarib, durrang natijani qayd qilishdi. Umumiy natijaga koʻra 3-guruh aʼzolari musobaqa gʻolibi boʻlishdi. Uyga vazifa sifatida darslikdagi 379-mashqni bajarish hamda oʻzlariga maʼqul kelgan biror film qahramonini tavsiflash topshirigʻini berdim. Biz boshqa grammatik mazular boʻyicha ham darsniyuqoridagidek tashkil qilamiz. Bunda, asosan, darslik materiallaridan nutqiy koʻnikmalarni shakllantiruvchi mashqlarnigina tanlab olamiz hamda oʻquvchilarga qoʻshimcha tarzda yuqoridagidek nutqiy topshiriqlar beramiz.⁶

Ushbu mavzuga bagʻishlangan darsda gumon va inkar yuklamalari haqida tushuncha berish va ularni nutqda qoʻllashga oʻrgatishni asosiy maqsad qilib qoʻydim. Darsda yuklama va uning turlariga oid jurnallar, ragʻbat kartochkalari, magitofon va kodoskopdan foydalandim. Yuklamalar yuzasida oʻtilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun quyidagi misollarni oʻqib eshittirdim:

1.Shundoq dedi-yu, egasi ming poylasin, oʻgʻri- bir. 2. Hoy, ehtiyot boʻl, bola! Daryo bilan xazillashib boʻlmaydi-ya. 3. Dardga darmon boʻladigan ham shu soʻz, turmushga ogʻu soladigan ham xuddi shu soʻz. 4. Goʻyo kimdir oʻtganday boʻldi.

Oʻquvchilar misollarni tinglab,undagi yuklamali soʻzlarni ajratdilar va daftarlariga yozib bordilar. Keyin har bir soʻzni oʻqib, undagi yuklamalarni maʼnolarni izohlaydilar. Darsning keyingi bosqichiga gumon va inkor yuklamalari ustida ishlashimizni eʼlon qilib, xattaxtaga mavzuni yozdim. Kodoskop orqali ekranga quyidagi misollarni tushurdim:

1. – Tashqariga qara-chi, birov kelgandir.
 - Ha, sizni soʻrashyapti.
2. –Eslab koʻring, balki bu haqda eshitgandirsiz.
 - Yoʻq, hech eslay olmayapman.

Oʻquvchilarga misollarda qandaymaʼnolari borligi haqida savollar berildi. Ular bu misollarda gumon maʼnosi mavjud boʻlib, u –dir yuklamasi orqali ifodalangnini aytib berishdi. Soʻng balki soʻzi ham gumon maʼnosida kelishi haqida maʼlumot berish maqsadida oʻquvchilar diqqatini ekrandagi sheʼrga qaratdim.

Alisherning onasi

⁶ Feruza Musayeva 6-sinfda “Xususiyat sifatleri”ni oʻrgatish tajribasidan. Til va adabiyot taʼlimi jurnali.

Bilmam, qanday ayol bo'lgan
 Alisherning onasi.
 Balki uning aqliga ham
 Lol qolgan zamonasi
 Balki uning ko'zlarida
 Bo'lgan og'ir bir xayol
 Balki g'amgin bir zotdir u,
 Balki sho'xchan bir ayol.
 Balki buyuk farzandiga,
 Terib kelgan chechaklar.
 Balki tunlar unga bedor
 Aytib bergan ertaklar.

She'r o'qilgach, o'quvchilar balki so'zi ushbu misralarda –dir yuklamasi bilan bir qatorda qo'llanilganligi va gumon ma'nosi ifodalashini aytdilar. Keyin o'quvchilar shu misralarga –dir yuklamasini qo'shib o'qishdi. Ko'p hollarda balki so'zi –dir yuklamasi bilan birga qo'llanib, ma'no kuchaytirishini tushuntirdim.

Shundan so'ng, xattaxtaga quyidagi so'zlarni yozib, bu yerdagi –dir qo'shimchasi ma'nosini izohlashni, bundan gumon ma'nosi bor-yo'qligini aniqlashni topshiriq qilib berdim:

1. Suv hayot manbaidir. 2. U musobaqada g'olibdir.

O'quvchilar bu misollarda gumon ma'nosi yo'qligi va –dir kesimlik qo'shimchasi ekanligi haqida xulosa qilishdi.

Shundan so'ng o'quvchilar quyidagi misollardan –dir faqat gumon ma'nosida qo'llanganini topib, daftarlariga yozib olishdi. Misollarni kodoskop orqali ekranga tushirdim.

1. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 2. U qo'ng'iroq qilgandir. 3. Sizni yo'qlab kelishgandir. 4. Q udratimiz do'slikdadir. 5. Aftidan kelmaydigandir. 6. Ona buyuk zotdir. 7. Balki unutib yuborgandirsan.

Darsning keyingi qismida inkor yuklamalari ustida ishlashimizni e'lon qilib, ekrandagi materiallardan inkor ma'noli so'zlarni o'quvchilarga daftarlariga yozib olishni aytdim va hech yuklamasi –dir yuklamasidan farqli ravishda so'zdan avval va ajratib yozilishiga e'tiborni qaratdim. Na...na yuklamasi takrorlanishi, ular orasiga vergul qo'yilishi, also, sira, hech yuklamalari so'zdan oldin alohida yozilishiga e'tiborni qaratdim. Shundan so'ng o'quvchilarga darslikning 95-betidagi gumon va inkor yuklamalari haqidagi grammatik material bilan tanishib chiqishni topshirdim.

Keyin o`quvchilardan also, sira, hech inkor yuklamalari bilan maqol va she`rlardan misollar keltirishni so`radim. Ular quyidagi misollarni keltirdi:

1. To`rt mucham sog`, do`stlarim bir havas qilgudek, nolimayman na kelajak, na o`tmishdan.
2. Yurtim senga she`r bitdim bugun,
Qiyosingni topmadim also.

O`quvchilarga also yuklamasi bo`lishsizlik fe`llari bilan kelishini tushuntirib, bu yuklama inkorni kuchaytirish ma`nosida qo`llanishi quyidagi misollarda ko`rsatdim:

Rozimasman,- Aslo rozimasman.

Bu yerda qolmayman.- Bu ishni also qilmayman.

Misollar keltirishni o`quvchilar ham davom ettirishdi. Shuningdek o`quvchilar e`tiborini na yuklamasining takror qo`llanishiga qaratib quyidagi misollar ustida ishlashni davom ettirdik:

Na vaqtim bor, na imkoniyatim,

Na yomg`ir, na qor yog`adi.

Na do`st, na dushmani ajratadi.

Darsning keyingi qismida quyidagi savollarga kerakli yuklamani qo`llab, inkor berish mashqini o`tkazdik:

U keladimi?-

U qachon keladi?-... .

Soch tolalarini sanash mumkinmi?-... .

Yolg`on gapirish mumkinmi?-... .

Mashqni o`yin tarzida davom ettirdim. 1-qatordagi o`quvchilar savol berishdi., 2-qatordagi o`quvchilar savollarga inkor yuklamalarini qo`llagan holda javib qaytarishdi. So`ngra rollar almashinildi. Eng ko`p to`g`ri javob bergan o`quvchilar qatori musobaqada g`olib chiqdi.

Keyingi topshiriq kitobdagi 253-mashqni bajarish edi. Mashq shartiga ko`r nuqtalar o`rniga zarur yuklamalarni qo`yib, gaplarni yozish o`quvchilarga topshiriq qilib berildi. Dars oxirida uyga vazifa qilib gumon va inkor yuklamalari bor 2 tadan hikmatli so`z topib kelishni topshiriq qilib berdim.⁷

⁷ Gulnoz Sorirova 7-sinf o'quvchilarini nutqda gumon va inkor yuklamalarini qo'llashga o'rgatish. Til va adabiyot jurnali.

XULOSA

Maktabda ona tili o'qitishdan maqsad o'quvchilarda ezgu ma'naviyatni shakllantirishdan iboratligidir. Bas shunday ekan, adabiy ta'limdan komil shaxsni shakllantirish talab qilinadi. Adabiy ta'limning vazifalari sifatida: oddiy o'quvchidan kitobxon o'quvchi, anglaydigan o'quvchidan o'qiganlarini anglaydigan o'quvchi, anglaydigan o'quvchidan tahlillay oladigan o'quvchi, tahlil qila biladigan o'quvchidan muayyan asar haqidagi fikrini og'zaki va yozma tarzda qiynalmay ifoda eta oladigan o'quvchi tarbiyalashdir, deb belgilanishi lozim. Ona tili o'qitishning mazmuni dastur, darslik, o'quv va metodik adabiyotlar, ko'rgazmali qurollar, yordamchi vositalar ham ta'lim mazmunini tashkil etadi.

Mamlakatimiz «Ta'lim to'g'risida»¹⁶gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» asosida ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohotlarning asosiy yo'nalishlarini anglab olmoq lozim. O'qitish va o'rganishning yangicha yo'llari paydo bo'lmoqda.

Bu yo'nalishlar:

- ta'lim mazmunini, tizimini isloh qilish;
- ta'lim-tarbiya boshqaruvini isloh qilish;

- ta'limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini yaratish;

- ota-ona, o'qituvchi-o'quvchining ta'lim jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarini shakllantirish;

- **bu tub islohotlarning bosh harakatlantiruvchi kuchi-yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga tadbiq etishdan iborat.**

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I. Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" -T.: Ma'naviyat, 2008.
2. I. Karimov "Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor.-T.: O'zbekiston 2009 yil
- 3."Til ta'limiga oid DTS va dasturlar haqida" R.Tolipova "Til va adabiyot ta'limi" 2012-yil 1-son 3-bet
4. Cho'lpon "Ruhiyat mulki" 2000-yil
5. Yo'ldashev.Q va boshqalar Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.:1994.
- 6.Mahfuza To'ychiyeva " Adabiyot darsliklaridagi savol topshiriqlar haqida" Til va adabiyot ta'limi, 2005-yil 3-son
7. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi – T.: Yangi asr avlodi,2007.

8. Z.Usmonova “Adabiyot o’qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish
imkoniyatlari”2005-yil 3-son 20-bet